Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKILOTLARNI MOLIVAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIVAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIVASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIVAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	



QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI

Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna

ORIENTAL universiteti

Biznes va boshqaruv kafedrası, dotsent v.b., PhD

E-mail: shakhnozakurbanova88@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda innovatsion faoliyatning o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil va solishtirma usullar asosida innovatsion faoliyatning ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot tannarxi, eksport salohiyati hamda foyda marjasiga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, innovatsion boshqaruv tizimini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va malakali kadrlar tayyorlash orqali korxonalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, iqtisodiy barqarorlik, qurilish materiallari sanoati, texnologik yangilanish, ishlab chiqarish samaradorligi, raqamli transformatsiya, eksport salohiyati, investitsion faoliyat, innovatsion boshqaruv tizimi.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the role and importance of innovative activity in ensuring the economic stability of enterprises engaged in the production of building materials. Based on a systematic approach, economic analysis, and comparative methods, the study examines the impact of innovation on production efficiency, product cost, export potential, and profitability. Furthermore, practical recommendations are proposed to strengthen the economic stability of enterprises through the improvement of the innovation management system, the introduction of digital technologies, and the training of qualified personnel.

Key words: innovation, economic stability, building materials industry, technological innovation, production efficiency, digital transformation, export potential, investment activity, innovation management system.

Аннотация. В статье всесторонне анализируются роль и значение инновационной деятельности в обеспечении экономической устойчивости предприятий по производству строительных материалов. В исследовании на основе системного подхода, экономического анализа и сравнительных методов изучено влияние инновационной деятельности на эффективность производства, себестоимость продукции, экспортный потенциал и рентабельность. Кроме того, предложены практические рекомендации по укреплению экономической устойчивости предприятий за счёт совершенствования системы управления инновациями, внедрения цифровых технологий и подготовки квалифицированных кадров.

Ключевые слова: инновации, экономическая устойчивость, промышленность строительных материалов, технологические инновации, эффективность производства, цифровая трансформация, экспортный потенциал, инвестиционная активность, система управления инновациями.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida qurilish tarmog'ining ulushi izchil ravishda oshib bormoqda. Bu jarayonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar nafaqat ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, balki mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirishda ham muhim o'rin tutmoqda.

Iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash uchun zamonaviy korxonalar faqat an'anaviy ishlab chiqarish usullariga tayanib qolmasdan, innovatsion yondashuvlarni faol tatbiq etishlari zarur. Innovatsion faoliyat — bu korxonalar tomonidan yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish,



resurslardan oqilona foydalanish va mahsulot sifatini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim omildir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni'da ham "Innovatsion rivojlanish orqali sanoat tarmoqlarining barqaror o'sishini ta'minlash" respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Shu bois, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatida innovatsiyalarni keng joriy etish va ularning samaradorligini oshirish — korxonalarning raqobatbardoshligini, iqtisodiy barqarorligini hamda uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlovchi asosiy strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni tashkil etish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, Y. Shumpeter, B. Santo, F. Valenta, B. Tviss, P. Druker, L. Vodachek, J. Berkut, P. Doyle, V. Shvandar, L. Szarneski, D. Van Gemert, D. Ashokkumar, R. Cooper, A. Oetzel kabi xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlarida innovatsiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqobat ustunligini ta'minlash hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mexanizmlari chuqur yoritilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan R. Fatxuddinov, V. Medinskiy, L. Koshkin, A. Kiryakov, G. Goldenshteyn, S. Ilenkova, A. Rusinov, R. Minnixonov, V. Suyazov, A. Yegorshinlarning ilmiy ishlari innovatsion menejmentning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilishga bag'ishlangan.

O'zbekistonda esa sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishi, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha S. G'ulomov, N. Mahmudov, Sh. Zaynutdinov, N. Yo'ldoshev, M. Ikramov, M. Eshov, R. Gimush, F. Matmurodov, B. Toshmurodova, N. Jiyanova va boshqa mahalliy olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ularning ishlari korxonalarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning milliy xususiyatlarini, resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi omillarni yoritib beradi².

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy barqarorligiga innovatsion faoliyatning ta'siri tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Ishda qiyosiy, statistik, SWOT-tahlil, diskontlash va Balanced Scorecard (muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi) usullaridan kompleks foydalanildi.

Innovatsion faoliyatni baholashda uchta yondashuv qo'llandi:

1. Rasmiy yondashuv – amalga oshirilgan innovatsion loyihalar soni va ko'lami asosida;
2. Xarajatli yondashuv – ITTKI xarajatlari va resurslardan foydalanish darajasi orqali;
3. Natijaviy yondashuv – innovatsion faoliyat natijasida olingan iqtisodiy samaradorlik asosida.

Baholashda B. Baxtiyorov va Z. Doniyorova metodikalari asosida fan sig'imkorlik, yangilanish koeffitsienti, ITTKI samaradorligi kabi ko'rsatkichlardan foydalanildi.

Ushbu metodologiya innovatsion faoliyatning korxona daromadliligi, raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishiga ta'sirini aniqlashga xizmat qiladi

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu ilmiy tadqiqotda tahlilning qiyosiy tahlil, statistik tahlil, diskontlash, SWOT-tahlil, ekonometrik tahlil hamda Balanced Scorecard (muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi) usullaridan kompleks tarzda foydalanilgan. Mazkur yondashuvlar yordamida innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorlikka, raqobatbardoshlikka va ishlab chiqarish natijalariga ta'siri chuqur o'rganilgan.

Jahon hamjamiyatining barcha mamlakatlarida innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Innovatsiyalar texnologik yetakchilikni

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2 Фуломов С.С. «Менеджмент асослари». Дарслик. – Т.: 2010. 316 б.; Махмудов Н.М., Хамидов С.О., Авазов Н.Р., «Инвестициялардан самарали фойдаланиш асосида sanoat tarmoqlarini rivojlantirish». Монография. Тошкент 2020й / Зайнутдинов Ш.Н., Ресурсная база и потенциал производство Узбекистана: использования и эффективность (региональный аспект) // Бюллетень науки и практики. Электрон.журн. 2017. №10 (23). С. 207-212. Йўлдошев Н.К. ва бошқалар. Инновацион менеджмент. Дарслик. Т.: ТДИУ, 2012. – 314 б.; Икрамов М.А., Алимов Е.А. Формирование спроса, как фактор инновационного развития Узбекистан. Материалы международной конференции. «Экономический рост России: проблемы и стратегические перспективы», с. 38-44.; Eshov M. (2020). EFFECTIVE USE OF INVESTMENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE ELECTRIC POWER INDUSTRY. Архив научных исследований, 1(18). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2172>; Гимуш Р. И., Матмurodov Ф. М. Инновацион менеджмент. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2008. – 144 б.; Тошмуродова Б.Э., Жиянова Н.А. «Инновация фаолиятни молиявий рағбатлантириш». Ўқув қўлланма. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2006. -110 б.



ta'minlash, global raqobatbardoshlikni oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini mustahkamlashda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda innovatsion faoliyat milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirish, iqtisodiy o'sishning strategik asoslarini shakllantirish va korxonalar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat texnika va texnologiyalarni yangilash, xarajatlarni boshqarish, energiya tejamkorligi hamda resurslardan oqilona foydalanish sohalarida ilg'or ishlanmalarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Innovatsion rivojlanishni jadallashtirish uchun sanoat korxonalari faoliyatida innovatsion ustuvorlikni izchil shakllantirish, innovatsion faollikni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

"Bugungi kunda O'zbekiston davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yaxshilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqda."³

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion tuzilmalarning samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarishni zamonaviy shakllarda tashkil etish, loyihaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish, resurs tejamkorligini oshirish mexanizmlarini kuchaytirish hamda mintaqaviy darajada prognoz ko'rsatkichlarini asoslash dolzarb hisoblanadi.

Korxonalar faoliyatida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, texnik va texnologik rivojlanish darajasini oshirish orqali bozordagi raqobatbardosh mavqeni mustahkamlash imkonini beradi.

Innovatsiyalarni tahlil qilish ularning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadigan o'ziga xos yondashuvlarni talab etadi. Innovatsion faoliyatni tahlil qilishning maqsadi — uning samaradorligini aniqlash, tashkilot faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini baholash, joriy etilayotgan yangiliklarning maqsadga muvofiqligini aniqlash hamda strategik innovatsion qarorlar qabul qilishni ilmiy asoslashdan iborat.

MDH olimlaridan K. V. Mixaylov ta'kidlaganidek, "Innovatsion faoliyat — bu iste'molchi va yetkazib beruvchi korxonaning raqobatdosh kuchidir⁴." Olimning fikricha, tahlilchi birinchi navbatda korxonaning innovatsiyalarga moyilligi, mavjud resurslar salohiyati va innovatsion kompetensiyasini baholashi zarur⁵. Shu asosda korxona innovatsiyalarga yo'naltirilgan faol tizim sifatida qaraladi.

O.V. Navoeva korxonaning innovatsion faoliyatini quyidagi ko'rsatkichlar asosida talqin etadi: "innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan investitsiyalarning umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi; innovatsiyalar tuzilishi; innovatsiyalarning jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligi darajasi hamda innovatsiyalarning raqobatdosh ustunliklarni ta'minlashga qo'shgan hissasi⁶."

Mazkur yondashuv korxonaning innovatsion faoliyatini faqat texnologik yoki moliyaviy nuqtayi nazardan emas, balki ularning jamiyat va bozor ehtiyojlariga moslashuvchanligi bilan birgalikda baholash zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy iqtisodchi olim B. Baxtiyorov esa korxona innovatsion faoliyati samaradorligini kompleks baholashda quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishni taklif etadi:

- korxonaning fan sig'imkorligi;
- ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotning yangilanish koeffitsienti;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) xarajatlari samaradorligi koeffitsienti;
- korxonada mahsulot ishlab chiqarishni modernizatsiyalash koeffitsienti;
- ilmiy ishlanmalarning intensivligi koeffitsienti⁷.

Baxtiyorovning fikricha, ushbu ko'rsatkichlar tizimi korxonaning ilmiy-texnik salohiyatini, resurslardan foydalanish samaradorligini va innovatsion jarayonlarning natijadorligini aniqlash imkonini beradi.

Mahalliy tadqiqotchi Z. Doniyorova esa "Sanoat korxonasining innovatsion faoliyatini baholash metodologiyasi"da quyidagini ta'kidlaydi:

"Korxonaning innovatsion faoliyati uning innovatsion salohiyatining dastlabki imkoniyatlari va tuzilishiga bevosita bog'liq⁸."

Bu yondashuv innovatsion faoliyat samaradorligi korxonaning ichki salohiyati, tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv mexanizmlarining moslashuv darajasiga bog'liqligini ko'rsatadi.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. -B. 23.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. -B. 23.

5 Михайлов К.В. Организация управления риском и инновациями в стратегии предприятия. Сборник трудов на тему «Актуальные проблемы развития экономики современной России». – Москва: МИПК, 2004.

6 Навоева О.В. Механизм повышения инновационной активности организации. – Магадан: Кордис, 2010. – 135 с.

7 Baxtiyorov B. Sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. i.f.d (DcS) diss. Toshkent.-2023. -B. 15.

8 Doniyorova Z. Sanoat korxonalari rivojlanishining innovatsion strategiyalarini takomillashtirish. i.f.d (PhD) diss.Toshkent.-2022.-B.15.



Innovatsion faoliyatni baholashda keng qo'llaniladigan usullardan biri diskontlash usuli hisoblanadi. Ushbu usul korxona tomonidan amalga oshirilgan innovatsion loyihalarni baholashda vaqt omilini hisobga olish imkonini yaratadi, ya'ni investitsiya kiritilgan mablag'ning bugungi qiymatini aniqlash orqali loyiha samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Diskontlash usuli, asosan, innovatsion loyiha natijasida real daromad olingan holatlarda qo'llaniladi, chunki u loyihaning yakuniy iqtisodiy samarasini uni amalga oshirish xarajatlari bilan solishtirish tamoyiliga asoslanadi. Bu yondashuv investitsiya qarorlarini qabul qilishda moliyaviy barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Innovatsion faoliyatni baholashda qo'llaniladigan usullarning afzalliklari va cheklovlari umumlashtirilgan holda keltirilgan. Jadvalda ko'rsatilgan tahliliy ma'lumotlar turli usullarni tanlashda korxonaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarurligini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Innovatsion faoliyatni baholashda qo'llaniladigan usullarning afzalliklari va cheklovlari⁹

Mazmuni	Manba	Afzalligi	Kamchiligi
Sanoat korxonasining innovatsion faoliyatini baholash metodikasi	Freeman C., Soete L. <i>The Economics of Industrial Innovations</i> [Text]. – Cambridge: MIT Press, 1999-yil .	Muallif innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar haqida aniq fikrlarga ega bo'lib, ushbu omillar ta'sirini hisobga olish yo'llarini taklif qiladi.	Innovatsion faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi ayrim omillarni hisoblash va baholash uchun formulalar taklif qilinmagan.
Korxona innovatsion faoliyatini baholash metodikasi	Cooper R.G., Edgett S.J. <i>Maximizing Productivity in Product Innovation</i> [Text] // <i>Research Technology Management</i> . — 2008-yil mart-aprel . — P. 47–58.	Metodologiya keng qamrovli bo'lib, iqtisodiy va matematik formulalar bilan qo'llab-quvvatlangan.	Innovatsiyalar holatini belgilovchi omillarni baholash mexanizmi doirasida qo'llaniladigan juft taqqoslash usuli inson omilining ta'sirini o'z ichiga olgan ekspert baholashlariga asoslanadi. Bu esa korxonaning innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni baholashning obyektivligini hamda ustuvorlik reytingini shubha ostiga qo'yadi.
Innovatsion loyihalarning innovatsionligi va raqobatbardoshligini baholash metodikasi	Moore J.F. <i>The Death of Competition: Leadership and Strategy in the Age of Business Ecosystems</i> [Text]. — New York: Harper Business, 1997-yil .	Muallif mahsulotning raqobatbardoshligini baholash bilan birga, innovatsionlikni baholashni ham o'z ichiga olgan.	Baholash jarayoni inson omilining ta'sirini o'z ichiga olgan ekspert baholashlariga asoslanadi, bu esa baholashning obyektivligini shubha ostiga qo'yadi.
Innovatsion loyihalar sifatini baholashning integral mezonlari	Корчагин П.Ю. <i>Инновационные экономические подходы к анализу условий устойчивого развития предприятий // Управление инновациями: теория, методология, практика</i> . — 2013-yil, №7 . — В. 123–127.	Metodologiya keng qamrovli bo'lib, muallif korxonaning barcha loyihalarini baholash zarurligini ta'kidlaydi.	Muallif korxonaning innovatsion faoliyatini baholash uchun aniq ko'rsatkichlarni taqdim etmaydi.
Innovatsion loyiha samaradorligini baholash va vaqt o'tishi bilan mahsulot sifatining o'zgarishini hisobga olish usullari	Фролов А.Л. <i>Оценка эффективности инновационного развития предприятия</i> . — <i>Финансы и статистика</i> , 2005-yil .	Muallif innovatsion loyiha sifatiga vaqt o'tishi bilan ko'ptarmoqli yondashuv asosida o'zgaruvchi sifatida qarashni taklif qiladi.	Innovatsion loyihani faqat investitsiya loyihasi sifatida baholashga yondashuv, bu metodning bilim talab qiladigan loyihalash korxonalarida qo'llanishini cheklaydi.
Korxona innovatsion faoliyatini baholash usuli	Baxtiyorov B. <i>Sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish</i> . I.f.d. (DSc) dissertatsiyasi. — Toshkent, 2023-yil .	Innovatsion klasterlarni tashkil etish orqali sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarning investitsion jozibadorligini baholash taklif etiladi.	Milliy iqtisodiyot, byudjet va tijorat samaradorligini baholash loyihani amalga oshirishdan avval bajariladi hamda bu yondashuv korxonaning umumiy innovatsion faoliyatiga emas, balki faqat ma'lum bir loyihaga taalluqlidir.

9 Muallif ishlanmasi.



Har qanday iqtisodiy kategoriya singari, innovatsion faoliyat samaradorligi ham turli yondashuvlar yordamida baholanadi. Ushbu baholash asosida korxonalar o'z rivojlanish strategiyasini aniqlab, yuqori qo'shimcha qiymatga ega innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqish orqali barqaror iqtisodiy mavqeiini ta'minlay oladi. Ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarida ilg'or texnologiyalardan foydalanish natijasida erishilgan sifat, funksional imkoniyat va narx belgilarining optimal uyg'unligi korxonaning raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda korxona tomonidan amalga oshiriladigan innovatsion faoliyat — bu mahsulot turini diversifikatsiya qilish, sifatni yaxshilash, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish hamda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish maqsadida innovatsiyalarni izlash va ularni amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liq jarayon sifatida talqin etiladi.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy vazifalarni hal etishi zarur:

korxona faoliyatida mavjud muammolarni aniqlash;

innovatsion jarayonlarni amalga oshirish mexanizmini shakllantirish;


innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish.

Har qanday faoliyatda bo'lgani kabi, ishlab chiqarish jarayonidagi mahsulot va texnologiyalar tez eskiradi, bu esa ularni muntazam yangilab borish zaruratini tug'diradi. Shu bois korxonalarda eskirgan texnologiyalarni yangilash, ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelgan kamchiliklarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Buning uchun korxonalarda mahsulot, texnologiya va ish o'rinlarini vaqti-vaqti bilan attestatsiyadan o'tkazish, bozor tendensiyalari va taqsimot kanallarini tahlil qilish zarur. Boshqacha aytganda, korxona faoliyatining barcha yo'nalishlarini tizimli "diagnostika"dan o'tkazish, ya'ni ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini, mahsulot sifati va bozor holatini kompleks baholash talab etiladi.

Mazkur yondashuv rahbarlarga raqobatchilar harakatini kutmasdan, o'z mahsulotlarini yangilash, ma'naviy eskirish holatlarini bartaraf etish hamda ilg'or innovatsiyalarni joriy etish imkonini beradi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mahsulotning kelajakda eskirishi ehtimolini oldindan anglash korxona rahbarlarini yangi innovatsion g'oyalarga e'tibor qaratishga undaydigan eng kuchli rag'batlardan biridir.

Zamonaviy ilmiy manbalarda korxonaning innovatsion faoliyatini baholashga turlicha yondashuvlar mavjud. Ulardan eng keng tarqalganlari — rasmiy, xarajatli va natijaviy yondashuvlar bo'lib, ular amaliyotda eng samarali hisoblanadi (1-rasm).




1-rasm. Korxonalarda innovatsion faoliyatni baholashga yondashuvlar

Har bir yondashuv korxonaning innovatsion faoliyatini ma'lum bir nuqtayi nazardan baholashga qaratilgan. Xususan, rasmiy yondashuv korxonaning amalga oshirilgan innovatsion loyihalar soniga, xarajatli yondashuv esa ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirilgan mablag'lar hajmiga, natijaviy yondashuv esa barcha innovatsion tashabbuslarning iqtisodiy samaradorligini baholashga e'tibor qaratadi.



Innovatsion jarayon — bu yangiliklarni (innovatsiyalarni) yaratish, rivojlantirish va amaliyotga joriy etish bilan bog'liq murakkab tizimli jarayondir. Ushbu jarayon doirasida innovatsiyalarni ishlab chiquvchilar foyda olish maqsadida yangiliklarni yaratadilar, ularni takomillashtiradilar hamda iste'molchilarga yetkazadilar. Innovatsion jarayon g'oyaning paydo bo'lishidan boshlanib, uni tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish bosqichi bilan yakunlanadi (2-rasm).



2-rasm. Korxonalarda innovatsion jarayonlarni tashkil etish bosqichlari¹⁰

Innovatsion jarayonning eng soddasi innovatsion zanjir hisoblanadi. U nisbatan mustaqil bosqichlar va davrlardan iborat bo'lib, to'liq ilmiy–ishlab chiqarish siklini o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichlar ilmiy bilimlardan real mahsulotga o'tish jarayonining ketma-ketligini belgilaydi va ularni tizimli tarzda bog'laydi.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirish sharoitida korxonalarda innovatsion faoliyatni amalga oshirish samaradorligini baholash mezonlari innovatsion xarajatlar hamda innovatsion mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlarni taqqoslash imkonini beruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi.

Korxonaning daromadliligi va rentabelligi maqsad sifatida emas, balki innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirishning eng muhim sharti va natijasi sifatida qaraladi. Bu yondashuv korxonada barqaror iqtisodiy o'sishni, resurslardan oqilona foydalanishni va innovatsion strategiyaning amaliy natijalarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Innovatsion jarayon sanoat korxonasining barcha tashqi va ichki elementlarining samarali, muvofiqlashtirilgan hamda izchil ishlashini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu holat innovatsion uyg'unlik deb ataladi.

Korxonaning innovatsion rivojlanishidagi bunday uyg'unlik innovatsiyalarni boshqarishning asosiy maqsadi sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki korxonaning umumiy raqobatbardoshligini va barqaror rivojlanish salohiyatini ham oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda innovatsion faoliyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash va raqamli yechimlardan foydalanish natijasida korxonalarning raqobatbardoshligi, mahsulot sifati hamda eksport salohiyati sezilarli darajada oshadi. Korxonaning innovatsion strategiyasi faqat texnik modernizatsiya bilan cheklanmasdan, balki boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlarni amaliyot bilan uzviy bog'lashga yo'naltirilishi zarur. Innovatsion faoliyat korxonalarda iqtisodiy o'sish, foyda marjasining ortishi, mahsulot diversifikatsiyasi, ishlab chiqarishning barqarorligi, resurslardan samarali foydalanish, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ishlab chiqarish tezligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, innovatsion boshqaruv tizimi korxonalarni global raqobat sharoitlariga moslashishga yordam beradi. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning alohida mexanizmlarini yaratish, grantlar va imtiyozli kreditlardan foydalanish tizimini kengaytirish, raqamli texnologiyalar, "yashil iqtisodiyot" va energiya tejankor ishlab chiqarish modellarini joriy etish, innovatsion klasterlar va ilmiy ishlab chiqarish markazlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, ITTKI xarajatlarini soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish uchun innovatsion boshqaruv va texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish dasturlarini joriy etish, shuningdek, har bir korxonada innovatsion rivojlanish monitoringi va tahlil tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu takliflarning amalga oshirilishi natijasida qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'ida yuqori texnologik, eksportbop va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlari yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фуломов С.С. «Менеджмент асослари». Дарслик. – Т.: 2010. 316 б.;
2. Махмудов Н.М., Хамидов С.О., Авазов Н.Р., «Инвестициялардан самарали фойдаланиш асосида sanoat tarmoqlarini rivojlantirish». Монография. Тошкент 2020й /

10 Muallif ishlanmasi.



3. Зайнутдинов Ш.Н., Ресурсная база и потенциал производство Узбекистана: использования и эффективность (региональный аспект) // Бюллетень науки и практики. Электрон.журн. 2017. №10 (23). С. 207-212.
4. Йўлдошев Н.К. ва бошқалар. Инновацион менежмент. Дарслик. Т.: ТДИУ, 2012. – 314 б;
5. Икрамов М.А., Алимов Е.А. Формирование спроса , как фактор инновационного развития Узбекистан. Материалы международной конференции. «Экономический рост России: проблемы и стратегические перспективы», с . 38-44.; Eshov M. (2020).
6. EFFECTIVE USE OF INVESTMENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE ELECTRIC POWER INDUSTRY. Архив научных исследований, 1(18). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2172>;
7. Гимуш Р. И., Матмуродов Ф. М. Инновацион менежмент. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2008. – 144 б;
8. Тошмуродова Б.Э., Жиянова Н.А.“Инновация фаолиятни молиявий рағбатлантириш”. Ўқув қўлланма. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2006. -110 б.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. -B. 23.
10. Михайлов К.В. Организация управления риском и инновациями в стратегии предприятия. Сборник трудов на тему «Актуальные проблемы развития экономики современной России». – Москва: МИПК, 2004.
11. Михайлов К.В. Организация управления риском и инновациями в стратегии предприятия. Сборник трудов на тему «Актуальные проблемы развития экономики современной России». – Москва: МИПК, 2004.
12. Навоева О.В. Механизм повышения инновационной активности организации. – Магадан: Кордис, 2010. – 135 с.
13. Baxtiyrov B. Sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. i.f.d (DcS) diss.Toshkent-.2023. -B. 15.
14. Doniyorova Z. Sanoat korxonalari rivojlanishining innovatsion strategiyalarini takomillashtirish. i.f.f.d (PhD) diss. Toshkent-.2022.-B.15.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
